




TILAME

2-bosqich 1-semestr. 8-mavzu:"Layli va Majnun"dostoni

АЛИШЕР
НАВОЙИ

ЛАЙЛИ
ВА
МАЖНУН

Достон
асосида
радио-
спектакл



Adabiyot

Abdukadirova M.M.




TILAME


Reja:

1. "Layli va Majnun" dostonning yaratilish tarixi.
2. Dostonning g‘oyaviy yo‘nalishi va mavzu ko‘لامи.
3. Asardagi timsollar.
4. Majnun - haqiqiy oshiq timsoli.
5. Dostonning badiiy xususiyatlari.


O'zbek adabiy tilining asoschisi, adabiyotimizning
so'nmas yulduzi, buyuk bobokalonimiz Alisher
Navoiyning o'zbek tilining saqlab qolishida xizmati
katta.



Abadiyat bilan qay so'z egizak,
Balki yaxshi orzu, yaxshi niyatdir ?
Mangulik anglanar Navoiy desak,
Navoiyning o'zi Abadiyatdir!!



“Layli va Majnun “ haqida ilk bor 1188-yilda ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy doston yaratgan. Nizomiy “Layli va Majnun “ dostonini ham g‘oyaviy, ham badiiy jihatdan har tomonlama yuksak darajaga ko‘tardi va xamsachilik an’analari qatoriga qo‘shdi. Undan so‘ng “Layli va Majnun “ dostoniga ko‘plab shoirlar murojaat qilishdi. Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy, Alisher Navoiy qalamlariga mansub dostonlar mashhur. Garchi ushbu dostonlar bitta nom bilan atalsa va ulardagi voqealar tizimi bir-biriga juda o‘xshash bo‘lsa-da, har bir muallifning “Layli va Majnun “i o‘ziga xos va betakror asardir.





“Layli va Majnun”dostoni. Kirish - muqaddima 9 bob.



1-bob	Hamd
2-bob	Munojot
3-bob	Rasululloh (s.a.v.) madhi
4-bob	Me’roj kechasi ta’rifi
5-bob	So‘z ta’rifi. N.Ganjaviy, X.Dehlaviy ta’rifi
6-bob	A.Jomiy madhi
7-bob	Sulton Husayn Boyqaro madhi
8-bob	Badiuzzamon mirzo madhi
9-bob	Tun ta’rifi



TIIAME

Dostonning yaratilish tarixi. Alisher Navoiy «Xamsa»sining uchinchi dostoni «Layli va Majnun» an'anaviy mavzuda yozilgan bo'lib, asar Sharqda mashhur bo'lgan Layli va Majnun syujeti asosida yuzaga kelgan. “Layli va Majnun” syujeti uzoq tarixga ega bo'lib, uning ildizlari

VII asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Manbalarda Majnun haqida xilma-xil fikrlar bor. Ayrim arab manbalarida ayttilishicha, Majnun tarixiy shaxs bo'lib, Bani Omir qabilasidan chiqqan, uning asl ismi Qays ibn Mullavah (yoki Qays ibn Muod)dir.



Qays o‘z qabiladoshi Laylini sevgan, sevgi va hijron azoblari haqida mungli she’rlar bitgan. Bunday ma’lumotlar ibn Qutayba (889 yilda vafot etgan) ning “Kitob ush-she’r va shuarо” asarida ham keltiriladi. Majnun haqida afsona va rivoyatlar to‘qila boshlagan. Bu rivoyatlar IX asrga kelib keng tarqalgan, X asrga kelib esa Majnun nomi, u haqidagi rivoyatlar Arabistondagina emas, balki Yaqin va o‘rta Sharqda mashhur bo‘lgan.

Majnun nomi bilan bog‘liq she’rlar rivoyatlar yaratilishiga asos bo‘lgan bo‘lsa, shu rivoyatlar asosida yozma adabiyotda Layli va Majnun haqidagi yirik hajmli asarlar paydo bo‘lgan.



Majnun - haqiqiy oshiq timsoli.
Dostonda qahramonlar ma'naviy-ruhiy olami g‘oyatda ta’sirchan va chuqr tasvirlanadi. Qaysning qalbi tug‘ilishidayoq ishqqa makon edi. Uning vujudi loyi ishq o‘tida pishgan. “G‘am tufrog‘i suyidin sirishti, Ishq o‘ti-yu yeli sarnavishti”. U “ishq ahlig‘a qiblai murod” bo‘lib dunyoga keldi. Chunki uning “ishq farzandi” ekanligi chaqaloqligidayoq ayon edi. Qaysni o‘qish uchun Hay qabilasidagi maktabga berishadi.



Bu paytda Layli betob edi, shuning uchun darsga kelmayotgan edi. U sog‘ayib maktabga qaytgach, Qays bilan uchrashadi. Ular bir-birini ko‘rgach, qalblarga ishq otashi tushadi va shu kundan boshlab hijron azoblari boshlanadi. Shunisi alohida e’tiborga molikki, ularning qalbidagi ishq bir kunda, bir onda, nigohlar bir-biri bilan to‘qnashganda boshlanadi va bu sevgi o‘ti bir umr so‘nmaydigan bo‘lib yonadi. Bu voqealayli va qizlarning gul sayriga chiqqanlarida sodir bo‘ladi.



Dostondagi psixologik tasvir vositalari.
Navoiyning bu dostonida qahramonlar ichki olami,
psixologik tasvirning g'oyatda ta'sirchan
ifodalanganligi bilan alohida ahamiyatga egadir.
«Layli va Majnun» dostoni kompozitsiyasida ikki
asosiy qahramon - Layli va Majnunning
muktublari muhim o'rinn tutadi. Shoир Laylining
xatida murojaat usulidan foydalanib, uning qalb
tug'yonlarini quyidagicha ifodalaydi:

Ey ishq o'tida xasim nechuksen,

Ey bedilu bekasim nechuksen!

Ey bo'lg'ali ishqim ichra madxush,

Bir jur'ai vasl qilmog'on no'sh!



TIAME




Nazwy "Lactarius deliciosus"



“Layli va Majnun” dostoni qahramonlari



TIIAME





Asardagi ruhiy tasvir vositalari



TIIAME

maktub

tabiat
manzaralari

tush motivi

so‘z
o‘yinlari

aforizmlar

lirik
tasvirlar

Kontrast

Badiiy tasvir
vositalari



TIAME









Mavzuni mustahkamlash:



TILAME

Mavzuni mustahkamlash uchun “Zinama -zina” o‘yintexnologiyasidan foydalilaniladi, o‘yin shartiga ko‘ra 1-guruh o‘quvchilari Sharq adabiyotidagi xamsanavislar nomini aytishadi, 2-guruh o‘quvchilari Navoiy “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi dostonlar nomini aytadi, 3-guruh o‘quvchilari Navoiyning ”Layli va Majnun” dostoni qahramonlari nomini keltirib, izohlashadi.



TILAME

		<p>3–guruh Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni qahramonlari nomini keltirib, izohlashadi.</p>
	<p>2–guruh Navoiy "Xamsa" si dostonlari nomi</p>	
<p>1 – guruh xamsanavis shoirlar nomi</p>		



Tushunchalar izohini toping.



TILAME

Tushunchalar	Izohi
1.	Layli ishqin tanimda jon qil, Layli shavqin rangimda qon qil. Ushbu so'zlar Majnun tomonidan qachon aytiladi?
2.	Majnun va Navfal ilk bora qachon uchrashib qolishadi?
3.	Kim mayl etibon tuman jafog'a, Bergaylar ul oyni ajdahog'a. Ushbu baytda oy va ajdaho deganda qaysi qahramonlar nazarda tutilgani?
4.	Dostonning qaysi o'rinalarida tush motividan foydalanilgan?
5.	Dostondagi ruhiy tasvir vositalarini ayting.



TIIAME

Javoblar:

1. *Ka'bada Qaysning Yaratganga munojoti;*
2. *Navfal bilan Qays sahroda tasodifan ov paytida uchratib qoladi;*
3. *Oy- Layli, ajdaho- Ibn Salom;*
4. *Laylining otasi agar Navfal hujum qilsa qizini o'ldirmoqchi bo'lganida, Qaysning ota-onasi vafot etganda;*
5. *Maktub, peyzaj, tush motivi va boshqalar.*



TIIAME

O‘quvchilarni faollashtiruvchi savollar:

- 1.“Layli va Majnun” dostonining yaratilishi haqida ma’lumot bering.
- 2.Dostonning asosiy qahramonlari kimlar?
- 3.Majnun ishqi qanday ishqqa mansub?
- 4.Dostonda qanday g‘oyalar ilgari surilgan?
- 5.Dostondagi peyzaj tasviri haqida gapiring.
- 6.Maktub janridan shoir nimani nazarda tutgan?
- 7.Dostonning badiiy xususiyatlari haqida gapiring.



Uyga vazifa “Layli va Majnun”
dostonini o‘qish. Tisollarga tavsif
berish.